XALQ DEPUTATLARI BOYOVUT TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 31 - mart VI-46-45-9-123-K/23 Boyovut tumani hokimligi

Boyovut tumanida geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni, “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli, 2020-yil 20-yanvardagi “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 34-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yilning 30-yanvar kuni 08-00704-sonli ekspert xulosasini inobatga olib, Mahalliy davlat to‘g‘risidagi Qonunning 6- va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yilning 30-yanvar kuni 08-00704-sonli ekspert xulosasiga asosan tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi I.Mirzaqulovning axborotini ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi nomsiz aholi punktlarining tarkibiy qismlarini nomlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yilning 30-yanvardagi 08-00704-sonli ekspert xulosasiga asosan berilgan takliflar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Boyovut tumani hokimining o‘rinbosari (O.Jo‘rayev), tuman Ichki ishlari bo‘limi boshlig‘i (J.Abramov), Boyovut tumani Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Z.Kamalov), tuman Soliq inspeksiya (O‘.Sariboyev), tuman Statistika bo‘limi (A.Berdinazarov) mazkur qarorga asosan tegishli hujjatlarga o‘rnatilgan tartibda o‘zgartirishlar kiritilsin hamda bu borada zarur choralar ko‘rilsin.

4. Kadastrlar palatasi Boyovut tumani filiali (S.Sherboyev) ikki oy muddatda: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrdagi 1010-son qarori bilan tasdiqlangan “Ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlarida (shoh ko‘chalar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, berk ko‘chalar, mavzelar) joylashgan ko‘chmas mulk obyektlarining manzillarini belgilash, o‘zgartirish va me’yorlashtirish ishlarini amalga oshirsin;

manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni manzilning o‘zgartirilganligi haqida o‘rnatilgan tartibda xabardor qilsin.

5. Tuman hokimligi Matbuot xizmati (F.Po‘latov)ga mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va Boyovut.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Odilov) va tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (I.Mirzaqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **D.Uralova**

Xalq deputatlari Boyovut tuman
Kengashining
2023 yil 31 martdagi
VI-46-45-9-123-K/23-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi nomsiz aholi punktlarining tarkibiy qismlarini nomlash

№	Geografik obyektning amaldagi nomlanishi	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Tavsiya etilayotgan yangi nomlar
1	Ko'hinur	Ko'cha	Alisher Navoiy mahallasi	Nufuzli
2	Oy shu'lasi	Ko'cha	Amir Temur mahallasi	Sarbon
3	Baraka	Ko'cha	Anorzor mahallasi	Shijoatli
4	Istiqbol	Ko'cha	Beruniy mahallasi	Binokor
5	Yangikun	Ko'cha	Beruniy mahallasi	Kelajak tongi
6	Beshbuloq	Ko'cha	Boboyurt mahallasi	Adolat
7	G'afur G'ulom	Ko'cha	Do'stlik mahallasi	Bog'i Maydon
8	Xiyobon	Ko'cha	Do'stlik mahallasi	Turkiston
9	Sarishta	Ko'cha	Iftixor mahallasi	Yashildiyor
10	Navbahor	Ko'cha	Iftixor mahallasi	Sayqal
11	Nurlihayot	Ko'cha	Ijodkor mahallasi	Omad
12	Iste'dod	Ko'cha	Muqimiy mahallasi	Buyuk karvon
13	Jizzax	Ko'cha	Muqimiy mahallasi	Yangi asr
14	Sadarayhon	Ko'cha	Navbahor mahallasi	Saxiylar
15	Bodomzor	Ko'cha	Olmazor mahallasi	Zahmatkash
16	Ibratli	Ko'cha	Ozodlik mahallasi	Raiyat
17	Zargar	Ko'cha	Ozodlik mahallasi	Gulchambar
18	Mash'ala	Ko'cha	Qarapchi mahallasi	Beqiyos
19	Za'faron	Ko'cha	Qarapchi mahallasi	Iltifotli
20	Balandchaqir	Ko'cha	Sadriddin Ayniy mahallasi	Sadoqat
21	Ali Qushchi	Ko'cha	Sarmich mahallasi	Viqorli
22	Zabardast	Ko'cha	Shirin mahallasi	Inoyat
23	Sa'diy Sheroziy	Ko'cha	Usmon Yusupov mahallasi	Himmat
24	Orzu	Ko'cha	Yangibo'ston mahallasi	Xosiyatli